



Илмий – амалий конференция
материаллари

**ИЛМ - ФАН
ВА
ИННОВАЦИЯ**

Қ а р ш и

AMIR TEMUR BUYUK XALQPARVAR

*Ma'naviyat asoslari mutaxassisligi
magistranti: Quthiddinov B.*

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, Movarannahr va Xurosonda Amir Temur va temuriylar hukmronligi davri (XIV asrning 70-yillari XV asr) ilm-fan va madaniyat rivojlangan yillar bo'lganini ko'rish mumkin. Ma'naviy-madaniy hayotda ham insoniy qadriyatlarning yuksak hislatlari ilmga intilish, aqlni ulug'lash, insoniylik, ruhiy poklanish ahloqiy kamolotga erishuv, adolat, barcha uchun baxt-saodat, do'stlik-birodarlik va komil insonni shakllantirish kabi masalalar olg'a surilgan. Shu nuqati nazardan qaraganda mazkur davrdagi olim, mutaffakir, donishmand, san'atkorlarning ko'pchiligi ayni paytdagi jamiyat va davlatdagi mavjud ehtiyoj va talabidan kelib chiqib shu maqsad yo'lida ijod qilgan, faoliyatini gumanistik g'oyalarga yo'naltirgan.

Amir Temurning davlati o'z davrida Yevropa va Osiyodagi eng yirik, mustahkam va rivojlangan davlat sifatida tanildi. Bunday qudratli davlatni boshqarish uchun nafaqat odil, mohir arbob, dastavval insonparvar, qonun-qoidalarni to'la egallagan, har sohada bilimdon va donishmand podshoh zarur edi. U "Temur Tuzuklarida" shunday deydi: "Hayr-ehson ishlarim bilan, odamlar ko'nglidan joy oldim. To'g'ri siyosat va insof bilan sipohiylarni raiyatni umid va qo'rqinch orasida saqladim. Fuqaro va qo'l ostimdagilarga rahmdillik qildim, sipohiylarga in'omlar ulashdim. Zolimlar yetkazgan ashyoviy va jismoniy zaralarni isbotlaganimdan keyin, ularni shariatga muvofiq odamlar o'rtasida muhokama qildim va bir gunohkorning o'rniga boshqasiga jabr-zulm o'tkazmadim".

Ko'plab dalillarga asoslanib shuni aytish mumkinki sohibqiron o'zining ijtimoiy siyostida xalq madaniyati sohasida inson, jamiyat va tabiatga cheksiz g'amxo'rlikni namoyon qilgan. Chunki har bir davlatning kuch-quvvati dastavval xalq farovonligiga, mamlakatning osoyishtaligiga bog'liq. Sohibqiron yaxshi tushunganki, xalq qanchalik to'q - farovon bo'lsa, davlat shunchalik baquvvat bo'ladi, uni hech kim yenga olmaydi. Mazkur g'oyaga tayangan Temur mamlakatni boy qilish, farovon hayot o'rnatish siyosatini olib borgan. Uning barcha ishlari jiddiy va izchil xalparvarlik ruhi bilan

sug'orilgan edi.

Temurga zo'r obro' keltirgan katta ijtimoiy siyosat shundaki, u barcha xalq ahvolidan habardor bo'libgina qolmay, o'z iborasi bilan aytganda "ulug'larga og'a qatorida, kichiklarni farzand o'rnida ko'rib" munosabat qilgan, "Adolat va insof bilan tangrining yaratgan bandalarini" o'zidan rozi etgan. "Temur tuzuklari" da Sohqiiron shunday deydi: "Qaysi mamlaktani zabt etgan bo'lsam o'sha yerning obro'-e'tiborli kishilarni aziz bildim, sayidlar, ulamolari, fuzalo va mashoyihga ta'zim keltirdim va hurmatladim, ularga suyurg'ol, vazifalar berib, maoshlarini belgiladim; o'sha viloyatning ulug'larini og'a - inlarimdek, yoshlari va bolalarini bo'lsa, o'z farzandlarimdek ko'rdim". Bunday nihoyatda oqilona insonparvarlikka asoslangan ichki va tashqi siyosat Sohbiqironga jahon miqyosida yuksak obro' keltirgan va Hind okeani sohillaridan Volga bo'ylarigacha, Mo'g'ul dashtlaridan Bolqon va O'rta yer dengizi subtropik tuprog'igacha buyuk qudratli imperiyani bunyod etishda eng muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Amir Temur hamma sohada adolatni bosh mezon deb bilgan. "Kuch- adolatda" degan shiorga amal qilib yashagan. Adolat tarafdori va xalqparvar Sohqiiron mamlaktda jabr-zulim va fisqu fasod bo'lmasligi, osoyishtalik va farovon turmush o'rnatilishi tarafdori edi. U o'z oldiga mamlaktda adolatni o'rnatish, tartib va tinchlikni saqlash, fuqaroning turmushini yaxshilash, qurilishni kuchaytirish, davlatni rivojlantirishni maqsad qilib qo'ygan, raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solib qo'ymaslikni domiy e'tiborda saqlagan. Chunki, uning tarificha, aholini xonavayron qilish davlat xazinasining qashshoqlashishiga olib keladi, bu esa sipohiyniing tarqalib ketishiga va saltanatning kuchsizlanishiga sabab bo'ladi. Xalq g'amida hukumronlik qilgan Amir Temur "Kimki biron sahroni obod qilsa birinchi yil undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yil raiyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar. Uchunchi yil esa, oliq-soliq qonun qoidasiga muvofiq hiroj yig'ilsin" deb hukm chiqargan. Bu esa fuqaro va davlat manfaatlarining o'zaro uyg'unlik asosida qurilganligini, xalq manfaatlarining ustun qo'yilishidek demokratik tamoyillarni ko'rish mumkin.

Amir Temur tarixchilar tasviricha, o'rta asrning atoqli davlat va harbiy arboblardan biri bo'lib, Yevrpoa olimlari o'z asrlarida

uning salbiy tomonlari bilan birga muhim fazilatlarini ham ta'kidlab o'tganlar. Nemis olimi F.Shlosser o'zining "Jahon tarixi" asrida: "Baxtiyor jangchi, jahongir, uzoq Sharqda qonunshunos bo'lish bilan birga o'zida, Osiyoda kam uchraydigan taktik va strategik bilimlarni ifodalaydi", deb yozsa, atoqli nemis olimi va tarixshunosi M.Veber: "Temur o'z dushmanlariga nisbatan juda berahm edi, lekin sarkardalik, davlatni boshqarish va qonunchilik sohasida buyuk iste'dodga ega edi", deb ta'riflaydi. Amir Temurning har bir harbiy yurishiga turtki bo'larlik sabab bor edi. Bu sabalar-o'z davlatining chegaralarini mustahkamlash, tashqi dushmanlardan himoyalanih, karvon yo'llarini turli yo'lto'sarlardan tozalash, xiyonatchi, sotqin, aldanchilarni jazolash, bo'ysunmaganlarni itoat ettirish, o'zining siyosiy ta'sirini kengaytirish kabilardan iborat bo'lganligini tarixiy manbalardan bilib olish mumkin. Masalan, Amir Temurning To'xtamishxonga qarshi yurishini olsak, Amir Temur To'xtamishxonga ko'p iltifotlar, yordamlar ko'rsatib, 1379-yilda O'rusxonni yengib, Oq O'rda taxtiga To'xtamishxonni o'tqazgan edi. Ammo To'xtamishxon Amir Temurning umidlarini puchga chiqaradi. U movarounnahrga bir necha bor talonchilik niyatida bostirib kirganidan so'ng, Amir Temurda ham unga qarshi kurashish majburiyati vujudga keldi va 1395-yil 15-aprelda Qunduzgacha Amir Temur bilan To'xtamishxon o'rtasida hal qiluvchi hayot - mamot jangi boshlandi. Jang faqat To'xtamishxonning taqdirini hal qilib qo'yaqolmay, balki butun Oltin O'rda taqdirini ham hal qildi.

Bu kabi misollar Amir Temurning naqar muruvvatli, bag'rikeng va ezgulikka ixlosmanti inson ekanligini, xalq farovonligi va tinchligi yo'lida yuksak jasorat egasi bo'lganligidan guvohlik beradi. Ayniqsa Temur davrida qurilgan me'moriy obidalarining hashamati, arxiteteturas va o'ziga xos uslubi insonning hayratiga sazovor bo'ladi. Bugun ham savlat to'kiib uzoq moziy haqida haqiqatni so'ylayotgan bu muazzam obidalar Temurning betakkor shaxs ekanligidan dalolatdir. Bir paytlar Amir Temur bobomiz: "Kim bizning qudratimizga shubha qilsa, qurgan imoratlarimizga boqsin", - degan edi. Uning eng muhim fazilatlaridan biri, qaysi bir mamlaktga yurish qilmasin, avvalo o'sha mamlaktning qonun-qoidalari, turmush tarzi, siyosiy -ijtimoiy axvolini shaxsan o'zi

hissi kuchayadi.

San'at asari insonni zamon talablari asosida yashashga moslashtirib, o'zligini tushunish jamiyat va davlat manfaatlarini anglashga davlat etadi. Olib borilayotgan islohotlarning tub mazmunini tushunish va uni anglab yetish, bu talablarni o'z faoliyatida qo'llay bilish inson ma'naviyati bilan bevosita bog'liq. Chunki ma'naviyat bu – avvalo munosabatdir. Misol uchun "Taraqqiyotning o'zbek modeli"ni oladigan bo'lsak birinchi tamoyil sifatida "Iqtisodning siyosatdan ustunligi va mafkurdan xoli bo'lishi" belgilangan. Insoniyat tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, qaysi davrda iqtisodni rivojlantirishga zo'r berilgan bo'lsa, ma'naviy hayotda orqada qolish hollari kuzatilgan va aksincha ham bo'lgan. Shu kabi tarixiy tajribalarni hisobga olgan holda taraqqiyot yo'limizda davlatning bosh islohotchi ekanligi, ijtimoiy islohotlar yuritilishi, qonun ustuvorligi, bosqichma- bosqich rivojlanish tamoyilari tanlandi. Islohotlar yangilanish sifatida xalqimiz mintaliteti, xarakterini, tarixiy va milliy xususiyatlari hisobga olgan holda olib borilmoqda. Shuning uchun islohotlarning dastlabki bosqichlaridanoq kishilar tafakkurini yangilash, milliy o'zligini anglash, tashabbuskorligi va siyosiy faolligini oshirish masalasiga alohida e'tibor berildi. Odamlardagi o'tmishdan qolgan qo'rquv, hadik, fikr qaramligi islohotlarning qiyin kechishiga sabab bo'ladi. Erkin firlash mustaqil ishlash kabi imkoniyatlari cheklangan, xususiy mulkdan maxrum kishida jamiyatdan va o'z-o'zidan begonalashuv kuzatiladi, ishonchsizlik yuzaga keladi.

Mustqillikning dastlabki kunlaridan boshlab moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligiga erishish borasida ko'pgina amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususiy mulkchilik va tadbirkorlik faoliyatiga keng yo'l ochib berildi. Bir so'z bilan aytganda, iqtisodiy va ma'naviy islohotlar o'zaro mutanosiblik kasb etmoqda. Olib borilayotgan ma'naviy sohadagi islohotlarning pirovardida ma'nan yetuk, jismonan sog'lom avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazish masalasi turibdi. Iqtisodiy islohotlarimiz esa xalqimizni farovon yashashini ta'minlashdek olijanob vazifaga qaratilan. Xulosa shuki, chinakam bilimni shakllantirish, ma'naviy tarbiya jarayonini izchil va uzluksiz amalga oshirish orqali har qanday tahdid va tazyiqni oldini olish va bartaraf etish mumkin. Buning

uchun esa jamiyatimizning har bir a'zosi islohot va o'zgarishlarning nimaga qaratilganini, qanday amalga oshirilishi va uning natijasi haqida aniq tasavvurga ega bo'lmog'i va faoliyatini shu asosda tashkil etishi muhimdir. Xalqimiz ko'ngilidagi mustahkam ishonch, tilidagi cheksiz shukronalik tuyg'usi, minnatdorchilik kayfiyatining asosiy boisi olib borilayotgan islohotlarning xalqchil ekanligidan ularning barchasi inson omiliga, uning manfaatlariga xizmat qilishidadir. Bu jarayonda ma'naviyat insonga kuch bag'ishlaydi, uni harakatga undaydi va uning mustahkam ishonchiga aylanadi.

Adabiyotlar:

1. Islom Karimov. "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir" T., "O'zbekiston" nashriyoti 1996 y, 34-bet
2. A. Erkayev. "Ma'naviyat millat nishoni" T., "Ma'naviyat" nashriyoti., 1999 y.
3. A. Erkayev. "Ma'naviyat va taraqqiyot" T., "Ma'naviyat" nashriyoti., 1999 y.

КАШКАДАРЁЛИК ЁШЛАРНИНГ ХАЛҚАРО СПОРТ МУСОБАҚАЛАРДА ИШТИРОКИ ВА УНИНГ НАТИЖАЛАРИ

*Тарих йўналиши магистранти: Тоштемурова Н.
Илмий раҳбар: проф А. Чориев*

Мустақиллик йилларида Қашқадарё вилоятида спортни ривожлантириш ва бу борадаги халқаро алоқаларни кенгайтириш юзасидан кўплаб ишлар амалга оширилди.

Халқаро мусобақаларда иштирок этаётган ёшларнинг сафи тобора кенгаймоқда, улар томонидан қўлга киритилган совринлар микдори, айниқса, сўнгги йилларда сезиларли даражада ошди. Жаҳоннинг энг йирик ва нуфузли спорт мусобақаларида Ўзбекистон вакиллари фаол иштирок этмоқда.¹

1992 йил 10-11 августда Шахрисабздаги "Ҳисор" ўйингоҳида ўзбек миллий кураши бўйича соҳибкирон Амир Темур хотирасига бағишланган I-халқаро мусобақа бўлди. Унда Тожикистон, Туркменистон, Қирғизистон Республикалари ва Ўзбекистоннинг вилоятларидан келган полвонлар қатнашди.

81	Нисонов Ж.	Мустақиллик йилларида Қашқадарё вилоятида хусусий бизнесни ривожлантириш иши тарихидан	264
82	Юсупов М., Мўминова Г.Э.	Ўзбекистонда мустақиллик йилларида меъморчиликнинг ривожланиши	269
83	Саидов Ф., Низомов Х.	Республика миллий-маданий марказларининг миллатлараро тотувлик ғоясини ҳаётга жорий этишдаги ўрни	274
84	Do'styorova S., Raxmatova N.	Alisher Navoiy asarlarida ma'naviyat tushunchasi talqini	280
85	Jabborov E.	Ong, ma'naviyat va iroda nisbati	283
86	Boymurodov Z., Qutbiddinov B.	Ma'naviyat va islohotlar	287
87	Тоштемурова Н., Чориев А.	Қашқадарёлик ёшларнинг халқаро спорт мусобақаларда иштироки ва унинг натижалар	291
88	Шодмонова Д., Мўминова Г.Э.	Саноат соҳаси кадрлари тайёрлашда хорижий давлатлар билан ҳамкорлик	298
89	Qutbiddinov B.	Amir Temur buyuk xalqparvar	303
90	Тўхтаева Р.	Молия, пул тизимига доир тадқиқотларнинг тарихшунослиги (Совет давлати мисолида)	306